



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

MUMTOZ MATNLARNI STRUKTURAL TAHLIL QILISH TAMOYILLARI

Usmonova Oyistaxon Yuldashaliyevna
Toshkent davlat texnika universiteti, dotsent
Qozoqova Sayyora Sobitxon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada adabiyotshunoslikdagi struktural metod imkoniyatlari hamda mumtoz matnlarni struktural tahlil qilish tamoyillari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, badiiy asar, sath, matnning ichki va tashqi strukturasi, g'ayrimatn, umumiy ma'noni tashkil etuvchi tamoyil, muallifning badiiy niyati, muallif obrazi, matnning badiiy unsurlari.

ПРИНЦИПЫ СТРУКТУРНОГО АНАЛИЗА КЛАССИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ

Усмонова Ойистахон Юлдашалиевна
Ташкентский государственный технический университет, доцент
Козакова Сайёра Собитхон кизи
Наманганский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

В статье рассматриваются возможности структурного метода в литературоведении и принципы структурного анализа классических текстов.

Ключевые слова: художественный текст, литературное произведение, уровень, внутренняя и внешняя структура текста, нетекст, принцип, образующий общий смысл, художественный замысел автора, образ автора, художественные элементы текста.

PRINCIPLES OF STRUCTURAL ANALYSIS OF CLASSICAL TEXTS

Usmonova Oyistaxon Yuldashaliyevna
Tashkent State Technical University, Associate Professor
Kozakova Sayyora Sobitxon qizi
Namangan State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract

This article discusses the possibilities of the structural method in literary studies and the principles of structural analysis of classical texts.

Keywords: literary text, literary work, level, internal and external structure of the text, non-text, the principle that forms the general meaning, the author's artistic intention, the author's image, artistic elements of the text.

“Struktural metod” – tarkibiy o‘rganish asosiga qurilgani uchun dastlab o‘zi yaxlit badiiy asarning tarkibiy jihatlarini belgilaydi, ular ilmiy tilda “sath”lar deb yuritiladi. So‘ngra o‘sha sathlarni bir-biri bilan bog‘lab turgan adabiy vositalar o‘rganiladi, va nihoyat, o‘sha qismlarni o‘zaro tutashtirish jarayonida yozuvchi (adib) amal qiladigan ijodiy qonuniyatlarni aniqlaydi.

Tahlil obyekti badiiy matn bo‘lsa ham bu o‘rinda tadqiqotchini o‘sha matnning yuzaga kelish sabablari yoki badiiy asarning yozilish tarixi qiziqitirmaydi, balki tugallangan asar yoki matn bilan ish ko‘riladi. Ikkinchidan, kitobxon tomonidan o‘sha asarni qabul qilishdagi ekspressiv yoki

impressiv holatlar hisobga olinmaydi, balki o'sha matn tahlilida amal qilinadigan usul, uslub va qonuniyatlar ishlab chiqishni nazarda tutadi. Shundan kelib chiqqan holda struktural tahlil metodi birgina asar yoki matnni o'rganish uchungina emas, balki, umuman, badiiy asar tarkibini o'rganishga va uning ilmiy tahlil asosida tadqiq etish bo'lgan jihatlarinigina o'rganadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rolan Bart, badiiy asarning mazmun-mohiyatini ochib berishda muallifning siyosiy qarashlari, diniy e'tiqodi, etnik mansubligi, psixologiyasi, tarjimayi holi va shaxsiy xislatlari kabi jihatlariga tayangan tanqidiy metodni qoralar ekan, asosiy e'tiborni matnni "tushuntirib berish"da muallifning tajribasi va qiziqishlari hal etuvchi ahamiyatga ega ekanligini yoqlab chiqadi. Bart fikricha, ushbu metod aniq va qo'lay, biroq amalda ishonchsiz va talay kamchiliklarga ega: "Matnni muallif yozdi" deb uni shunga mos ravishda talqin qilish "matnga cheklov qo'yish" demakdir. Matnni to'g'ri talqin qilish maqsadida o'quvchilar badiiy asarni muallifga e'tibor bermagan holda o'qib chiqishlari lozim"[1].

Shubhasiz, har bir matn bir nechta qatlam va ma'nolardan iborat. "Matn – shaxsiy tajribadan emas, balki behad ko'p madaniyatlardan olingan so'zlardan to'qilgan mato", deb Bart matn va mato o'rtasida o'xshashlik jihatlarni aniqlaydi[1]. Matnning asosiy ma'no-mazmuni yozuvchining "ishtiyoq"i yoki "ta'b"iga emas, o'quvchilar taassurotiga bog'liqdir.

Strukturalizm va struktur adabiyotshunoslik mohiyatini tashkil qilgan matn muammosi talqinini Y.Lotman qarashlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Rus adabiyotshunosi Y.M.Lotmanning ta'kidlashicha, matn "shubhasiz, gumanitar turkumga kiruvchi fanlarda eng ko'p qo'llaniladigan atamalardan biridir. 1970-yillar boshida Y.M.Lotman nazariy poetika muammolari xususida fikr yuritarkan, jumladan, shunday yozgan edi: "Matn va badiiy asar – bir xil narsa deguvchi fikrdan qat'iyon voz kechish lozim. Matn – bu badiiy asarning tarkibiy qismlaridan biri, badiiy taassurot, umuman olganda, matnni hayotiy va g'oyaviy-estetik tasavvurlarning murakkab kompleksi bilan qiyoslagandagina vujudga kelishi mumkin"[2].

Rus adabiyotshunosi V.S.Bayevskiy fikricha, "Badiiy asar strukturasi – bu o'ziga xos noyob "tuzilma", badiiy matn elementlarining o'zaro munosabati, binobarin, ulardan bittasining o'zgarishi boshqalarining o'zgarishiga ham olib keladi"[3].

Demak, matn strukturasi – bu matn mazmuni namoyon bo'lishining shakli, unga muayyanlik, qat'iy tartib, qismlarga bo'linish va yaxlitlik xosdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, taqqoslash usullaridan foydalanilgan hamda mumtoz matnlarni struktur tahlil qilish tamoyillari aniqlangan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tarkibiy qismlarining o'zaro bog'lanishi jihatidan oddiy, murakkab, o'ta murakkab matnlar ajratiladi. Shuningdek, matnning ichki va tashqi strukturasi kuzatiladi. Bundan tashqari matnning tilga oid turli strukturalari mavjud:

- a) morfologik, sintaktik, leksik, so'z yasovchi;
- b) assotsiativ;
- v) mantiqiy;
- g) kompozitsion;
- d) konseptual va hokazo.

Matn strukturasi negizini tashkil qiluvchi tamoyillar sifatida:

- a) umumiy ma'noni tashkil etuvchi tamoyil;
- b) muallifning badiiy niyati;
- v) muallif obrazi ko'rib chiqiladi.

Struktural tahlil tushunchasi bugungi kun adabiyotshunosi, kitobxon, umuman olganda, badiiyat ixlosmandi uchun ikki hodisani bir-biridan chuqur farqlashi lozimligini uqtiradi: badiiy

asar va badiiy matn. Ayni shu tafovutdan struktural tadqiq boshlanadi, an'anaviy tahlil o'z o'rnini tadrijiy yangi tafakkur oqimiga bo'shatib beradi. Shu o'rinda biz badiiy asar va badiiy matnni quyidagi ketma-ketliklar asosida farqlab, izoh berishimizga to'g'ri keladi:

1. Badiiy asar moddiy (materialistik) xarakterga ega: uni yozuv orqali ko'rish, audiofayl holatida tinglash, ushlab, sotib olish yoki kitob javoniga qo'yish mumkin. Badiiy matn esa moddiylikdan xoli bo'lgan mavhum (idealistik) hodisadir, u yozuvda emas, kitobxonning tafakkur olamida paydo bo'ladi va shu olamda yashaydi.

2. Badiiy asar o'z muallifiga ega bo'ladi. Muallifning "men"i tahlil jarayoniga kirib kelaveradi, asarning yutuq va kamchiliklari muallifga bog'liq holda baholanadi. Badiiy matn esa muallifni tan olmaydi va unga bo'ysunmaydi. Matn muallif hukmi ostidan chiqib ketadi, muallif unga hukmronlik qilolmaydi. Muallifga faqat obraz sifatida qaraladi, tahlil jarayonida ham muallif obrazi tarzida yondashiladi.

3. Badiiy asar o'ziga xos janriy tuzilish, bo'linishga (band, misra, bayt, bob...) ega bo'ladi, uni ayni shular orqali alohida tahlilga tortsa bo'ladi. Badiiy matn esa yaxlit bir struktura – tizimdir. Undagi barcha bo'laklar shu strukturaning qismi – uzvi sanaladi va har bir uzv boshqa uzvlar bilan chambarchas bog'lanadi.

4. Badiiy asar muayyan chegaraga ega, aniq janriy o'lchamlarga bo'ysunadi (masalan, tuyuq – albatta, 4 misra bo'lishi shart yoki sonet 2 ta to'rtlik va 2 ta uch misralik bandlar bilan chegaralanadi; ular ham shaklan, ham mazmunan ayni shu hududdagina mavjud bo'ladi). Badiiy matn esa hech qanday chegarani tan olmaydi, u har qanday o'lcham va hududdan tashqarida. U cheksizlikka intiladi va har tomonlama – bo'yiga, eniga, yoniga, tepaga, pastga – sarhadsizdir: yoyilaveradi, o'saveradi chuqurlashaveradi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, "matn cheksizligi" tushunchasi strukturalist Rolan Bart tomonidan ilmga tatbiq qilingan. Ammo barcha strukturalistlar bu borada yakdil deya olmaymiz. Masalan, Y.Lotman "Badiiy matn strukturasi" kitobida matnga xos bo'lgan ayrim xususiyatlar haqida yoza turib, "matnning cheklanganligi" xususidagi o'z qarashlarini ilgari suradi. Lotmaning ta'kidicha, har qanday matnda "muqaddima" va "xulosa" mavjud bo'ladi, bu esa matnning chegaralanganligini ko'rsatadi. Lotman juda kuchli adabiyotshunos olim edi, ammo bu o'rinda badiiy asar xususiyatlari badiiy matn o'ziga xosligi bilan bir qadar chalkashtirilgan. Chunki muqaddima, xulosa, epilog, asosiy qism kabilar bu badiiy asarning kompozitsiyasini tashkil qiluvchi unsurlardir. Badiiy matn cheksizligi deyilganda esa matnning hajmi yoki unsurlari emas, balki tarkibida mavjud belgilarning chegarasiz harakati, belgi munosabatlarining sonsanoqsizligi tushunilishi kerak. Matn tarkibidagi belgilar faqat bitta matn doirasi bilan chegaralanmaydi, ular boshqa matn strukturalari tomon to'xtovsiz intiladi va ulardagi mos belgilar bilan o'zaro aloqaga kirishadi. Natijada matnlararo bog'liqlik paydo bo'ladi va u hech qanday chegarani tan olmaydi. Aslida, matn cheksizligi deyilganda, ayni shu jarayonlar nazarda tutiladi.

5. Badiiy asar turg'un xususiyatga ega, undagi har bir narsa o'z joyida qoladi va o'zgarmaydi. Matn esa to'xtovsiz, muttasil harakat qiluvchi cheksiz maydondir.

6. Badiiy asarning turg'unlik xususiyati uning o'z hududi bilan cheklanishiga sabab bo'ladi. Badiiy matnning harakati esa faqatgina o'z maydoni doirasida yuzaga kelmaydi. Balki ayni bir matndagi belgilar boshqa matndagi belgilarning harakatga kelishiga sabab bo'ladi. Natijada esa bunday matnlar o'zaro birlashib, intermatn – matnlararo doirani yuzaga keltiradi.

Badiiy asarga bir qatlamlilik xos. Ya'ni an'anaviy tahlil jarayonida qanday hukm chiqarilgan bo'lsa, barcha davr o'quvchilari uchun ayni shu hukm yakuniy xulosa bo'lib qolaveradi. Badiiy matn esa ko'p qatlamlidir. Ya'ni matndagi belgilar harakat jarayonida yangidan yangi ma'nolarni yuzaga chiqaraveradi. Va bu ma'nolar matn doirasida shunchaki tinch yashamaydi: ular ziddiyatga kirishadi, kurashadi. Bu matnning asosiy xususiyatlaridan biridir. Strukturalizmning yetakchi namoyondasi Rolan Bart ayni shu hodisani chiroyli tasvirlaydi: "Badiiy matn bu bir xil ipdan emas, balki turli-tuman, rang-barang iplardan pishiq va puxta

to'qilgan matodir"[4].

8. Badiiy asarda fikr fikr holda qoladi. Badiiy matn uchun esa har qanday fikr belgidir, ya'ni badiiy matn boshdan oxir belgilardan iborat bo'ladi[5].

Yuqoridagi farqlardan ko'rinib turibdiki, har qanday badiiy matn bu oliy darajadagi badiiy asardir, ammo har qanday badiiy asar matn bo'lolmaydi. Struktural tadqiq ayni shu farqlar asosida chinakam matnni tanlab oladi va uni fazoviy kenglik o'lchamlarida tahlil qiladi. Milliy adabiyotimizga struktural tahlil nazari bilan yondashish bizga asl durdona badiiy boyliklarni saralash, millat tafakkurini shu kabi har tomonlama yetuk asarlar bilan boyitish, ularning zamon va makonga bo'ysunmasdan abadiy yashay olish imkoniyatini beradi. Struktural analiz doirasida badiiy matn asarning ma'lum adabiy tur, adabiy janrga mansubligini ifodalovchi muayyan ta'rif va mavjud qoliplangan qoidalarga bo'ysunmaydi, u an'anaviy yondashuvni sindirib tashlaydi. Badiiy matn obraz, janr yoki qandaydir adabiy muammo bo'yicha tahlil qilinmaydi. Bu matnning hal qiluvchi xususiyati hisoblanadi. Ayni shu sabab ham mukammal matn barcha zamonlar kitobxonlari tomonidan o'ziga xos tarzda, har safar yangicha qarash va talqinlar bilan qabul qilinaveradi. Badiiy matn hech qanday qoliplarni tan olmagan sababli makon va zamon uzra cheksizlikda yashayveradi. Albatta, har qanday badiiy asarni matn sifatida tahlilga tortib bo'lmaydi, negaki har qanday badiiy asar ham matn talabiga javob berolmaydi. Badiiy asarni matn sifatida baholash yoki baholamaslik faqatgina tahlil jarayonida his etiladi. Matn talablariga javob berolmaydigan asar strukturalizmga g'ayrimatn (matnga tegishli emas, matnda o'zga) deb ataladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi badiiy asarlarni ayni shu ikki hodisa: badiiy matn va g'ayrimatn tamoyillari yuzasidan tahlil qilishi struktural metodning dolzarb vazifasidir.

Mumtoz matnlar boshqa matnlar qurshovida, ular bilan o'zaro ta'sir, o'zaro bog'liqlik, o'zaro almashinuv, o'zaro boyitish, bir-birini taqozo etish, bir-biriga singib ketish doirasida harakatlanadi. Mumtoz matn o'z ichiga uzoq va yaqin o'tmishda yaratilgan asarlarning matnlarini qamrab oladi, shuningdek, boshqa matnlar ichiga ham anglangan yoki anglanmagan holda qo'shib ketadi. Bundan tashqari, matnning dinamik (o'zgarish, rivojlanish sur'ati, harakat va o'zgarishlarga moyillik) xususiyati tadqiqotlarda o'z isbotini topgan, ya'ni matn – bu muallif asosiy g'oya va fikrining amalga oshirilishiga hamda adresant va adresat o'rtasida munosabat o'rnatishga yo'naltirilgan, to'xtovsiz harakatlanayotgan, rivojlanayotgan tizimdir. Harakatlanish, rivojlanish xos bo'lgan matnni, qaysidir bir jihatdan jonli organizm bilan taqqoslash mumkin. Shunday fikrlar ham borki, matnlarning jonli dunyosi inson dunyosiga paralell ravishda azaldan yashab kelmoqda. Biroq, ayni paytda, matn mustahkam istehkom, barqaror qurilmadir. Matn hoshiyalar o'rtasidagi makonda mustahkam o'rtnashib olgan.

Struktural tahlilda matnning badiiy unsurlari va ularning o'zaro aloqadorligini tekshiriladi. Shu tariqa matn tarkibidagi har bir juzv, mucha ayni shu tarkibdagi boshqa qismlar bilan munosabatda o'rganiladi va uning tarkibidagi o'rni hamda vazifasi tayin etiladi. Struktural tahlil quyidagi operatsiyalarni o'z ichiga oladi:

- umumiy matndan muayyan bo'lakni ajratib olish;
- ushbu "bo'lak"ni yondosh yoxud undan oldingi yoki keyingi matnlardan ajratib teshirish;
- tarkib (matn)ni iyerarxik (yuqoridan quyiga yoki muayyan intizom asosida) tarzda tahlil etish.

Badiiy matnga quyidagicha umimiy xulosalarni berib, uni tizimli tahlil qilish orqali butunlikni tashkil etgan qismlar orasidagi belgi munosabatlarni aniqlab olamiz:

-matn(badiiy matn): chek-chegarasi bo'lmagan maydon, u sanob adog'iga yetib bo'lmaydigan belgilarni o'z ichiga oladi. Mazkur belgilar matnning butun hududini qamrab olgan va ular bir-biri bilan turli aloqa-munosabatlarga kirishib matn yaxlitligini ta'min etadi

O'zbek adabiyotshunosligida mumtoz matnlarning struktur tahlili amalga oshirilgan tadqiqotlar deyarli yo'q darajada. Birgina professor Hamidulla Boltaboyev tomonidan Sab'ai

sayyor dostoni ushbu metod asosida tahlil qilingan. “Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor dostoni”da yettiliklar simmetriyasi” deb nomlangan ushbu maqola Andijon davlat universitetining Ilmiy xabarnomasida 2012-yil 1-sonida nashr qilingan bo‘lib, unda muallif 7 soni vositasida asar mazmun-mohiyatini ochib bergan. Muallif maqolada 7 sonini asar matnida 191 o‘rinda qo‘llanganiga aniqlik kiritish orqali asar strukturasi belgilovchi detalga ishora qiladi. Ya’ni 7 soniga. Dostondagi 7 liklarni maxsus chizma orqali tasvirlagan muallif, hafta kunlari, ularga bog‘liq bo‘lgan ranglar, chalingan kuy, eshitilgan hikoyat, ushbu kunga bo‘g‘liq sayyora nomi va eng asosiysi ushbu kun sabab eshirilgan tariqatdagi yo‘l kabilarni birin-ketinlikda chizmaga joylashtiradi. Masalan, Dushanba kunini oladigan bo‘lsak, dushanba kuni Bahrom Yashil saroyda Shahrisabzda kechgan Sa’d haqidagi hikoyani tinglaydi. Uchinchi musofir hikoyasini so‘ylayotganda Oy burjga keladi va tunda oy, saroyda esa Bahrom Navoi maqomini tinglaydi (bu maqomning “Mi” pardasi bilan boshlanadigan qismi tinglanadi). Bu faqr-u fano belgisi bo‘lib, hikoyada ham faqrlik martabasi ulug‘lanadi. Solik esa ruhoniylar safarda Istig‘no vodiysiga qadam qo‘yadi[6].

E’tibor beramiz, kun – dushanba, rang – yashil, kuy – Navoi, uning notasi – Mi, sayyora – oy, tasavvufdagi 7 maqomning biri – faqr-u fano, vodiy nomi Istig‘no. Shunday qilib, muallif asarda qo‘llangan 7 soni bilan bog‘liq tushunchalarni maxsus yettiliklar bilan taqqoslash va birlashtirish orqali o‘ziga xos simmetriya borligini ta’kidlaydi. Ya’ni barcha qo‘llangan dedallar 7 dan ortmaydi ham kam bo‘maydi ham. Bu Navoiy dahosini avlodlar tomonidan kashf etilishiga yana bir misoldir. Muallif ushbu yettiklarni asar kompozitsiyasini belgilovchi mezon sifatida baholaydi va shu asosda o‘z xulosalarini chiqaradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, struktural tahlil ilmiy tafakkurning tadrijiy pog‘onasi sifatida adabiyotshunoslikda badiiy asardan badiiy matn sari qadam tashlash uchun asosiy omildir. Adabiyotimizda yaratilgan va yaratilayotgan badiiy asar namunalarini struktur metod orqali tahlil qilish, badiiy matn talabiga mos yoki mos emasligini aniqlash ularning jahon adabiyoti va adabiyotshunosligi doirasida munosib o‘rin egallashi uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Барт Р. Смерть автора / Барт Р. Избранные работы: Семиотика. Поэтика. / Пер. с фр., вступ. ст. и коммент. Г.К. Косикова. – М.: Прогресс, 1989. - с. 386.
2. Лотман Ю.М. О поэтах и поэзии: Анализ поэтического текста / Ю.М. Лотман; М.Л. Гаспаров. – СПб.: Искусство–СПб, 1996. – с. 24-25.
3. Баевский В.С. Структурализм // Литературный энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1987. – с. 426-427
4. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – Москва, Прогресс, 1989.-245 стр
5. Farmonova M. Badiiy matnning o‘ziga xosligi (strukturalistik talqinda) scientific progress volume 2 | ISSUE 5 | 2021 ISSN: 2181-1601
6. Boltaboyev H. “Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor dostoni”da yettiliklar simmetriyasi”. ADU ilmiy xabarnomasi, 2012, №1, 9-11-betlar
7. Болтабоев Х, Махмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. I жилд. - Т.: Мумтоз суз. 2013. - Б. 321
8. O‘rinboyev A. Jomiy maktublari. – Toshkent. Ma’naviyat. 1984 - B. 40.
9. O‘rinboyev A. Hasanov M. Navoiy zamondoshlari maktublarida. - Toshkent: Fan. 1990. - B. 44.
10. Abdulxamidova X. Adabiyotshunosligida maktublar genezisi va badiiy-estetik funksiyasi. Monografiya. -Farg‘ona, 2025.
11. Qahramonov Q. Adabiy tanqidida struktur metod talqini. // “O‘zbek tili va adabiyoti”, 2009, 5-son;
12. Ёқубов. И. Структурал поэтика имкониятлари. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2006, №3.